



# TIBBIYOTNOMA

TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASI NASHRI

№ 4 2024-YIL 22-APREL



Olim bo'zang,  
olam seniki

## CHUVALACHILIK PROFESSOR ALLOMA - OLIMA

1954-yilning aprel oyida Toshkent shahrining Eski shahar dahasi "Chuvalachi" mahallasida istiqomat qilib kelayotgan mohir shifokor, ikkinchi jahon urushi qatnashchisi Zokir aka va Fayzixon ona Rizamuhamedovlar xonadonida qiz farzand dunyoga keladi.

Ota-onasi yaxshi niyatlar bilan farzandimiz olama mashhur shifokor – olima bo'lsin, deya qizaloqlariga Mashhuraxon ismini qo'yadilar. Mashhura bolalik chog'idanoq tibbiyotga mehr qo'yadi. Boisi otasi Zokir aka shifokor, onasi Fayzixon aya hamshira.

Ota-onani nafaqat ish joylarida emas, bilaks mahallada hamda qo'ni-qo'shnilariga tibbiyot borasida maslahat va yordam ko'stishlari yosh Mashkurada tibbiyotga nisbatan mehr erta uyg'onadi. O'rta maktabni a'lo baholarga bitirgan Mashhura 1971-yili hujjatlarini hech ikkilanmay

Toshkent davlat meditsina institutiga topshiradi, sinov imtihonlarini a'lo baholarga topshirib, ToshMI talabasi bo'ladi. 1977-yili oliyohni imtiyozli diplomga bitirgan Mashhura ToshMI birinchi respublika shifoxonasida vrach, keyinchalik ichki kasalliklar kafedrasida klinik ordinatör, assistent katta o'qituvchi, dotsent va nihoyat 1998-yili Mashhura fakultet va gospital terapiya kafedrasida professor unvonida faoliyat yurita boshlaydi. Bu darajalarga erishishni o'zi bo'lmaydi albatta. Mashhura ustozlari professor – E.Y.Qosimov, professor R.A.Qoraboyeva, professor X.Yo.Karimov, professor T.S.Soliyev, dotsent N.G.Sultonova, akademik V.A.Nasonova, professor A.N.Kokosov, akademik Ye.L.Nasonovlardan shifokorlik va pedagoglik mahoratlarini o'rganadi.

Mashhura Zokirovna 1991-yili Sankt-Peterburg shahrida

professor Aleksey Nikolayevich Kokosov rahbarligida nomzodlik dissertatsiyasini himoya qildi. 1995-yili esa doktorlik dissertatsiyasini himoya qildi. Mashhura Zokironovnaga 1997-yili Rossiya tabiiy fanlar akademigi, shu bilan bir qatorda Rossiya revmatologlar assotsiatsiyasining faxriy professori unvonlariga musharraf bo'ldi.

2003-2017-yillari Mashhura Zokirovna TTA davolash fakulteti gospital terapiya, tibbiy profilaktikaning kasb kasalliklari va ichki kasalliklar kafedra mudiri lavozimida faoliyat yuritdi. Uning rahbarligi ostida 3 ta doktorlik va 14 ta nomzodlik ishlari himoya qilindi. Hozirgi kunga qadar professor Mashhura Zokirovna 4 ta darslik, 25 ta monografiya, 12 ta o'quv qo'llanma, 12 ta metodik tavsiyanoma, 330

(Davomi 3-betda)



Inson qanchalik ko'p bilsa, u shu qadar kuchli.



## MOBILLIK DASTURLARI AMALGA OSHIRILMOQDA



Xalqaro talabalar mobilligi dasturi doirasida Gomel davlat tibbiyot universiteti (Belarus Respublikasi) a'lochi talabalar Toshkent tibbiyot akademiyasida amaliyat o'tamoqda.

Tashrif davomida belaruslik talabalar Toshkent tibbiyot akademiyasining gematologiya,

transfuziologiya va laboratoriya ishi, akusherlik va ginekologiya, travmatologiya va ortopediya kafedralarida malaka oshirib, Molekulyar genetik tadqiqotlar markazida hamkorlikda ilmiy tadqiqotlar olib boradilar.

Talabalarning mobillik dasturlarini amalga oshirish davom etmoqda.



## XALQARO ILMIY ANJUMAN

Toshkent tibbiyot akademiyasining «Jamoat salomatligi va menejment» kafedrasи mudiri Gulnara Xudaykulova va «Yuqumli va bolalar yuqumli kasalliklari» kafedrasи dotsenti Maxbuba Muminova Buxoro shahridagi «Abu Ali ibn Sino» nomidagi Buxoro davlat tibbiyot institutida bo'lishi.

Olimlarimiz «Saqligil Bilimleri Universitesi» va Boshqordiston davlat tibbiyot universiteti hamkorligida tashkil etilgan «Parazitologiyaning zamонави аспектлари ва ихак инфексионларининг долзарб муаммолари» mavzusidagi xalqaro ilmiy anjumanida o'z ma'ruzalar bilan ishtirok etishdi.

Deontologiya saboqlari

## TIBBIY DEONTOLOGIYA VA KASB ETIKASI NUQTAYI NAZARIDAN BOLALAR MUTAXASSISLIKARINING O'ZIGA XOSLIGI

*“Bola – katta odamning kichraytirilgan nusxasi emas, balki uning o'z olami va xususiyatlari mavjud”.*

N.FILATOV,  
akademik

Bola vujudi va ruhiyatining o'ziga xosligi o'smirlar bilan ishlovchi mutaxassislar faoliyatlariga katta ta'sir ko'rsatadi. Bu umumi parvarish, bola bilan muloqotning deontologik va yana ayrim boshqa savollarga taqaladi.

O'smirlar mutaxassislari aksariyat hollarda asab-ruhiy kasalliklarni turli yoshga xos o'zgarishlar va somatik kasalliklar bilan farqlashi, tug'ma taraqqiyot nuqsonlari bilan tushganlarni kuzatishi va parvarishlashi, ta'limgarbiya berishlari, zaruriyat tug'ilganida davolashiga to'g'ri keladi. Shu boisdan ham ular pediatriya, yuqumli kasalliklar, genetika asoslarini, embriologiya va akusherlikdan boxabar bo'lishi lozim. Ayrim xirurgik kasalliklar diagnostikasining murakkabligi va ularning turli-tuman ko'inishinda namoyon bo'lishi kasallik kechayotgan sharoitga, bolaning yoshiga, rivojlanishiga, umumi ahvoliga bog'liq bo'ladi, shu sababdan ham bolalar mutaxassislari va tabiblar pediatriyanı juda teran bilishi shart.

O'smirlar bilan ishlovchi xodimlar (tarbiyachilar, o'qituvchilar, tib xodimlari, tabiblar, huquq-profilaktika xodimlari) bemor bolalar bilan muloqoti katta ahamiyat

kasb etadi. Ruhiyatning beqarorligi, irodaning yo'qligi, bolaning tib xodimlariga nisbatan ishonchsiz kayfiyatda bo'lishi, ta'limgarbiya muassasalarida yoxud kasalxonada ota-onasiz yolg'iz qolish qo'rquvi e'tiborga olinib, bolaga nisbatan e'tibor va g'amxo'rlikni kuchaytirish shart. Bolalar shifokori, shu jumladan ruhshunos, o'qituvchi, tarbiyachi ham bir vaqtning o'zida tarbiyachi, murabbiy bo'lishi lozim, shuning uchun kichik mijoz bilan samimiy va muloyim ohangda suhbatlashish ulkan ahamiyatga ega. Buning uchun dastavval bolaning ishonchini qozonishga erishish lozim. Agar bolaga og'rigli va yoqimsiz muolaja otkazish zaruriyati bolsa (emlashlar, tahlil topshirishlar), hech qachon ularni "Muolaja og'riqsiz va yoqimli bo'ladi" deb ishontirmsmaslik kerak. Aksincha muolaja biroz noxush ekanligi, ammo barcha bolalar uni oson qabul qilganligi xususiyatida gapirish kerak. Umuman olganda, bunday paytlari mazkur muolajani boshidan kechirgan bolalar yordamidan samarali foydalanish lozim. Ammo bu bolakayning barcha injqliklarini qabul qilish kerak degan gap emas. Hamma narsani me'yor va muvozanat chegarasida otkazishga harakat qilish shart.

"Bolalarni sevganim uchun pediatr

bo'lganman", deb takrorlardi ustoz, O'zFA akademigi, professor Sayfi Shamsiyev o'z ma'ruzalarida. Bu qanotli jumlanı har bir bolalar mutaxassis faoliyat dasturi sifatida qabul qilmog'i lozim. Bemor bolanigan ota-onalar va qon-qardoshlar bilan muloqot borasida ham ehtiyojkorlikka intilish shart. Norasidasining taqdiri uchun tashvishlanayotgan ota-onalar, bobomolar uchun shifokorning davolash va parvarishlash borasidagi jiddiy bo'lмаган mulohazalarini yoki mantiqsiz hazillarini eshitish og'ir. Shu bilan birga, ular bilan muloqot chog'ida tib xodimi o'zini jiddiy va og'ir-bosiq, sermulohaza ekanligini ko'rsatishi kerak, aks holda ota-onalar tuturuqsiz vrach ekan degan xulosaga borishi tabiiy. Yana shunga ham e'tiborni jalb etish lozimki, bemorning ahvoli va davolash xususida tib xodimlari tomonidan beriladigan ma'lumotlar ixtilofli bo'lmasligi kerak.

Alijon FAQIROV,  
Yevropa Tabiiy fanlar akademiyasi  
akademigi, Respublika Sog'liqni saqlash  
a'lochisi,  
Qutbiddin NIZOMOV,  
Turon FA akademigi, Turon xalq  
yozuvchisi



*Bilganlarimizning cheki bor, bilolmagan  
narsalarimizning esa had-chegarasi yo'q.*



## CHUVALACHILIK PROFESSOR ALLOMA - OLIMA



(Boshi 1-betda)

ta ilmiy maqola va tezislar, 3 ta ixtiro, 4 ta intellektual mulk egaligi, 3 ta mualliflik guvohnomasiga ega. Mashhura Zokirovna 15 yildan ortiq vaqt davomida Respublika Sog'liqni saqlash vazirligida bos revmatolog hamda 15 yil davomida

TTAda kafedra mudiri lavozimlarda faoliyat yuritdi. Bu hali hammasi emas. Toshkentning Eski shahar "Chuvalachi" mahallasidan chiqqan alloma, olima, professor Mashhura Zokirovna Rossiyanı soha bo'yicha yuksak mukofotlari: "Zaslujenniy deyatel nauki i obrazovaniya", "Rossiyskaya akademiya yestestvennyi nauk" hamda "Za uspexi razvitiya otechestvennoy nauki imeni V.I.Vernadskogo" mukofotlari sovrindoridir. Shunindek, olima: Rossiya revmatologiya assotsiatsiyasi, Moskva shahri revmatologiya assotsiatsiyasi, Yevro Osiyo revmatologlar assotsiatsiyasi, O'zbekiston Respublikasi vrachlar assotsiatsiyasi a'zosidir.

Bundan 70 yil muqaddam Zokir aka

va Fayzixon ona Rizamuhamedovlarni chillalik uuda qilgan yaxshi va samimi niyatları: "Qizimiz olamga mashhur olima shifokor bol'sin", degan istaklari yaratgan egam dargohida maqbul bo'lib, hozirgi kunda Mashhuraxon Zokirovna tibbiyot fanlari doktori, professor, Rossiya tabiiy fanlar akademiyasining akademigi, Rossiya revmatologiya assotsiatsiyasining faxriy professoridir. Eski shahardan chiqqan bir o'zbek ayoliga bundan ortiq baxt bormi?

So'zimizni muxtasar qilar ekanmiz allanma olima, professor Mashhura Zokirovnaga atab yozilgan O'zbekiston xalq shoirasi Halima Xudoyerdiyevani ushbu she'riy misralari fikrimizga dalil bo'la oladi, deb o'layman.

### TA'ZIM QILAMAN

Oddiy so'zda shuncha ma'no, shuncha sehr,  
Bir insonda shuncha xislat, shuncha mehr.  
Osmonday keng gulday nozik go'zal qalbin,  
Sizga taqdim qilgan ekan egam qodir.

Fikr qilsam har onimiz ulug' ne'mat,  
Kibru havo ustun bo'lsa tortar g'aflat.

Necha minglab xasta dillarga shifo taratayotgan shifobaxsh qo'llaringiz aslo tolmasin muhtarama ustoz Mashhuraxon opa!

Mavjud ekan insonga xos bir xislat,  
Sizdan ibrat olsin ekan butun elat.

Shifokor ulug' sizdaylarning bori uchun,  
Siz najotsiz, xasta dillar kori uchun.  
Boshim egib ta'zim qilay qarshingizda,  
O'z kasbining jon fidosi bori uchun.

**Qutbiddin NIZOMOV,**  
**Turon xalq yozuvchisi**

### REVMATOLOGIYANING DOLZARB MUAMMOLARI...

Toshkent tibbiyot akademiyasi yana bir xalqaro anjumanga mezbonlik qildi.

Toshkent tibbiyot akademiyasi 1-son fakultet va gospital terapiya, kasb patologiyasi kafedrasini professor M.Rizamuxamedovaning 70 yilligiga bag'ishlangan "Revmatologiyaning dolzarb muammolari" mavzusida Xalqaro ilmiy-amaliy anjumanda revmatologiyaning dolzarb muammolari muhokama etildi.

Xususan, revmatoid artrit, osteoartroz, aksial spondiloartrit, biriktiruvchi to'qimaning tizimli kasalliklarini zamonaviy tashxislash va davolash



tamoyillari atroficha o'rganildi.

Anjumanda Rossiya, Qirg'iziston olimlari ham ishtirok etdi.

**TTA matbuot xizmati**



*Ustozlar – yurtning eng aziz,  
eng ulug' va mo'tabar kishilaridir.*



## YOSHLAR KIYINISH MADANIYATIGA QANCHALIK AMAL QILMOQDA?

Barchaga ma'lumki har bir insonning kiyim-boshi uning madaniy, aqliy, axloqiy, maishiy darajasini ko'rsatadi.

O'z navbatida kiyinishing ham o'ziga xos tabalrasi va qoidalari bor. Lekin, afsuski hamma ham bunga amal qilmaydi. Shunga ko'ra ba'zilarning kiyinishi odamlarda havas uyg'otsa, ba'zilarning kiyinishi esa ajablantirib, nafratingizni qo'zg'atadi. Buning sababi nimada?

Xo'sh, kiyinish madaniyati deganda nimani tushunamiz? Bu savolga hamma har xil javob beradi: kimdir kiyinish madaniyati deganda "modniy kiyinish"ni, ya'ni o'ziga yarashadigan, oxirigi uslubdagi kiyimlarni kiyishni tushunsa, kimdir zamonaviy va go'zal yurishni tushunadi. Lekin faqat tashqi go'zallik bilan emas, balki orastaligimiz, yurish-turishimiz, hayot, turmushga munosabatimiz, bilimdonligimiz, axloq-dobrimiz bilan ham go'zal bo'lishga harakat qilish lozimligi ko'pincha yoshlarning yodidan ko'tarilmogda.

Albatta, kiyinish - oliftagarchilik vositasiga aylanlar qolmasligi kerak. Ba'zi o'ziga bino qo'yan yoshlar ko'pincha boshqalarini qoyil goldirish, o'ziga jaib qilish uchun bezanishga ruju qo'yadi. Ammo haqiqiy madaniyatlardan kiyinishda me'yorga amal qilishi zarur.

Kiyinish madaniyati deganda nimani tushunmoq lozim? Avvlo, madaniyat so'ziga to'xtalib o'tsak. Madaniyat so'zi bizga arab tilidan kirib kelgan bo'lib, "sivilizatsiya", "taraqqiyot" kabi ma'nolarni anglatar ekan. Bu so'z har bir soha jamiyat yoki xalq bo'ladimi, faqat ijobjiy ma'noda qo'llanilishi shart. Lekin ba'zi o'zlarini "madaniyatl" sanovchi toifalar nomaqbwl amallarini madaniyat, deya atashga ulgurishdi. Masalan chekish - madaniyat, ichish - madaniyat, tirnoq o'stirish - madaniyat, soch kesish - madaniyat va hattoki ayollarni ochiq-sochiq kiyinishini ham madaniyat hisoblay boshlashdi.

Kiyinish madaniyati - yuqorida ta'kidlanganidek zamonaviy kiyinish, o'ziga yarashadigan kiyimlarni kiyish bilan birga o'zimizning milliyligimizning unutmagan holda "Biz kimning avlodimiz?", deya o'ziga savol bergen holda kiyinish maqsadga muvofiq bo'lar edi. Ba'zi bir yoshlarnimiz o'zlarining ochiq-sochiq kiyimlari va har xil soch turmakkari, hattoki turli taqinchoqlar (bilakuzuklar-u, qo'sha-qo'sha uzuklar) taqish bilan o'zlarini darsdan chalg'itish barobarida, oldidagi boshqa talabalarning ham fikru xayolini buzilishiga erishmoqda. Ayrim yoshlarni orasida: "Agar

men zamonaviy modaga asosan g'arbcha uslub bilan kiyinishni xohlasam buni nimasi yomon?", deya e'tiroz bildiradiganlar ham topiladi. To'g'ri kiyimning zamonaviy bo'lishi - yigit-qizga ham, erkak-ayolga ham husn. Lekin duch kelsa unga qiziqib, moda ortidan quvish - odobsizlik va madaniyatsizlik hisoblanadi. Xalqimiz fahm-farosatli, odobli insonni uning kiyinish madaniyatidan yaxshigina ajratib oladi. Ayniqa yoshiga, jinsiga qarab kiyinmaslik o'ta beodoblikdir. Ba'zi qizlarimiz shim kiyib, sochlarni qirqib, erkakcha kiyinadilar. Ayrim yigitlar esa sochini o'stirib har xil rangli bo'yolqar bilan bo'yab, bo'yniga taqinchoq, qulog'iqa sirg'a taqadilar. Ba'zilari esa kalta shimda jamoat joylarida yurganiga ko'zimiz tushadi. Bu kiyinish madaniyatiga to'g'ri kelmaydi.

Albatta bunday holatlarning oldini olish kerak, deb o'yaymiz. Buning uchun, avvalo ota-onas, jamoatchilik, mahalla, qarindosh-urug'lар va qolaversa siz yoshlarni - hammamiz birgalikda ish olib bormog'imiz kerak. Ana shundagina natijasi yaxshi bo'ladi.

Unutmung, palapartish kiyining kishini hech qayerda xush kayfiyat bilan kutib olmaydilar. O'zini va o'zgalarini unchalik nazarga ilmaydigan kishilargina bachkana, palapartish kiyinib, insonlar ko'ziga ko'rinishdan andisha qilmaydi.

Tashqi ko'rinish nafaqat qizlar uchun, balki yigitlar uchun ham juda ahamiyatlidir. Yana bir bora ta'kidlaymiz, kiyinish insonning ma'naviyati, didi, dunyoqarashini, qay darajada tartibli ekanligini oolib beradi. Sizning tashqi ko'rinishingiz - muvaffaqiyatga erishishingizdagi muhim omillardan biri.

So'zimiz so'ngida kiyinish odobi haqidagi rivoyat keltirib o'tishni maqsadga muvofiq deb bildik.

"O'limga mahkum qilingan bir ayol qatl qilishga olib kelayotganlarida soqchilardan ip bilan igna so'rabdi. Soqchilar sababini so'rashibdi.

Ayol:

- Tizzamning yonidagi choki so'kilibdi, shuni tikib qo'yay, - debdi.

Soqchi:

- Axir sen hozir o'lasanku, tikib nima qilasan?

Ayol esa shunday javob beribdi:

- Men ayolman! Sharm-hayoni saqlay. O'lim sari ketayotgan bo'lsam ham nomusim haqqi, xaloyiq oldiga ayoldek chiqishim kerak".

Lola ABDUQODIROVA,  
TTA Atrof-muhit gigiyenasi  
kafedrasini dotsenti

## XALQARO OLIMPIADA

Toshkent tibbiyot akademiyasining  
"MEDICAL MARVELS"  
jamoasiga g'alaba muborak!



Rossiya Federatsiyasining Qozon shahrida bo'lib o'tgan X Xalqaro "Белые цветы" forumi doirasida IV Ingliz tili xalqaro olimpiadasi bo'lib o'tdi.

Xalqaro olimpiadaning ilk saralash bosqichidan 15 ta eng kuchli jamoalar safida Respublikamizdan birgina TTAning "Medical Marvels" jamoasi muvaffaqiyatli o'tib, keyingi 2-3-bosqichlarda faol ishtirot etdi. Natijada faxrli 3-o'rinni qo'lg'a kiritdi.

Jamoaa tarkibida iqtidorli, bilimdon talabalarimiz - Saparbaeva Jursinoy, Oltiboyev Asilbek, Absattarova Madina, Shayakhmetova Madina, Tursunova Zebunnisolar muvaffaqiyatli ishtirot etdi.

Talabalarimizga kelgusi ishlarida ulkan zafarlar tilab qolamiz!



## AKADEMIK MOBILLIK

Toshkent tibbiyot akademiyasining «Jamoat sog'lig'ini saqlash maktabi»ga akademik mobillik ishlarni yanada takomillashtirish va o'zaro tajriba almashish maqsadida Qozog'iston Respublikasi Olmaota shahridagi S.D.Asfendiyorov nomidagi Qozoq milliy tibbiyot universiteti "Hamshiralik ishi" kafedrasini mudiri Dinara Makhatbetkulova va "Tibbiyot huquqi" kafedrasini mudiri Lidiya Bagatiriyova tashrif buyurdi.

Tashrif davomida "Jamoat sog'lig'ini saqlash maktabi" magistr talabalarini uchun mahorat darslari va ma'ruzalar olib borildi. Shu bilan birga jarayonda maktab xodimlari va magistr talabalar faol ishtirot etdi.



*Umrning butun ma'nosi mavhumlikni to'xtovsiz zabit etish, tobora va hamisha ko'proq bilishga intilishdir.*



## KOMPYUTER VA UYALI ALOQA VOSITALARIDAN FOYDALANGANDA KELIB CHIQADIGAN KASALLIKLAR

*"Me'yorga rioya qilinmaganida har qanday lazzat ham adadsiz azob-uqubatlarga olib keladi".*

Lev TOLSTOY,  
rus yozuvchisi

Dono xalqimizda "O't balosidan, suv balosidan, tuhmat balosidan asrasin", degan duo bor. Oxirgi yillarda ushbu duoning adog'iga "Telefon balosidan ham asragil" deb qo'shib qo'yiladigan darajaga yetdi.

Bugungi kunda ko'cha-ko'yillarda haddan tashqari asabiy odamlarni, ayniqsa yoshlarni va ular orasida ham asabiy qizlarni juda ko'p uchratasiz. Shunday go'zal va maftunkor qizlar: "nima uchun buncha asabiy ekan?", deb tang bo'lasan, kishi! Odamlar telefoniga bog'lanib, g'ilof bandasiga aylanib goldi, buning oqibatida jonli muloqot yo'qolib, mehr-oqibat degan tushunchaga putur yetdi.

Uyali aloqa vositalari inson turmushini osonlashtiradigan, yashash sifatini oshiradigan, og'rimizni yengil qiladigan eng samarali ixtirolardan biridir. Uning vositasida bugungi kunda dunyoning har qanday nuqtasidagi odam bilan bog'lanish, biznes ishlarni yo'lga qo'yish, muhabbat izhor qilish va birovni xo'p asabini buzib, xumordan chiqishingiz mumkin. Ammo mana shu ixtironing inson salomatligiga ziyoni ham beqiyos bo'lib chiqdi (albatta, me'yor bilan foydalanilmaganda). Hamma gap shundaki, uyali aloqa vositalarining ish prinsiplari asosida yuqori kuchlanishli elektromagnit jarayonlar yotadi, ularni biz qulopqa qanchalik yaqin tutib, uzoq muddat gaplashadigan bo'lsak, bosh miya to'qimalariga shunchalik ziyoni ko'p bo'lar ekan! Rossiya olimlarining hisob-kitoblariga qaraganda uyali aloqa vositasidan bir kunda 2 soatdan ortiq gaplashadigan odamlarda bosh miya saratoni (xavfli o'smasi) paydo bo'lish ehtimoli 5 barobarga, 1-2 soat oralig'ida gaplashish esa 2 barobargacha oshirib yuborar ekan. Rossiya olimlari uning salomatlik uchun xavfsiz muddati 30 daqiqadan oshmasligi kerakligini aniqlaganlar. Bundan tashqari, uyali aloqa vositasidan uzoq muddat foydalanilganida bosh miyada qon aylanish yomonlashadi, buning

oqibatida bosh miyada qon bosimi oshadi, neyronlardagi qo'zg'aluvchanlik va tormozlanishlar orasidagi nozik muvozanatga putur yetadi, ko'rish va eshitish yomonlashadi, neyronlar har bir kuchli to'lqindan keyin minglab nobud bo'ladilar, bu esa yillar otgani sayin xotiraning susayishiga diqqatni jamlab ololmaslik va aqliy zaiflikka olib keladi.

Kompyuter xususida ham shunday fikrlarga kelingan. Albatta, bugungi kundagi yassi ekrani kompyuterlarda nurlanish nisbatan kamroq bo'lsa ham, baribir uning zararli nurlarini butunlay bartaraf etishning iloji qilinmagan. Mutaxassislar bir kunda kompyuter ekrani oldida 4 soatdan ortiq bo'lmastikni, har 40 daqiqada esa 10-20 daqiqa undan uzoqlashib, davo badantarbiyasi bajarishni tavsiya qilmoqda. Ekrandagi kuchli nurlanish bosh miyadagi tormozlanish va qo'zg'alish jarayonlari muvozanatini buzib, qon aylanishini yomonlashtiradi, undan tashqari ko'rishning keskin yomonlashuviga olib keladi.

Ayrim mutaxassislar kompyuter ekrani oldiga kaktus, aloe kabi o'simliklarni qo'yishni tavsiya qiladi. Go'yo ular zararli nurlarini o'ziga tortib olar va siz butunlay xavfsiz holda soatlab o'tirsangiz bo'lar emish. Shuningdek, go'yo kompyuter nurlarini o'zida 100 foiz tutib qoladigan antiqa ko'zoynaklarning bozori ham avjida! Agar kaktus zararli nurlarini o'ziga butunlay tortib olganida kaktuslar har qadamda o'sib yotadigan Meksikada biror odam onkologik kasallikdan o'lmagan bo'lardi. Ko'rinib turibdiki, bizning og'rimizni yengillashtirib, muammolarimizni yechib beradigan sivilizatsiyaning eng yuksak yutuqlari ham johilona foydalanganimizni yoqtirishmas, buning uchun bizdan ulkan boj talab qilar ekan.

Uyali aloqa vositasidan johilona foydalinish oqibatida keladigan bosh og'riqlarining oldini olish uchun bir kunda undan 30 daqiqadan kam gaplashish, uni cho'ntak yoki maxsus g'ilofda belga yoki ko'krakka taqib yurmasdan, balki

maxsus sumkalar, diplomatlarda (iloji boricha badandan uzoqroqda) olib yurish, tunlari yostiq oldiga qo'ymasdan, balki butunlay o'chirib qo'yish lozim. Shu bilan birga uyali aloqa vositasiga qo'ng'iroq bo'lganida uni darhol qulqoqa olib bormasdan, balki ozroq shoshmay turish kerak, chunki aynan shu payti undagi elektromagnit to'lqini katta, shikastlovchi kuchga ega bo'ladi. Shu bilan birga hali yosh bolalarga bu vositani olib bermang, chunki ularning bosh miyasi elektromagnit to'lqinlariga juda sezuvchan bo'lib, noziq asab to'qimalarida ortga qaytmas o'zgarishlarni tez muddatlarda keltirib chiqarishi mumkin.

Xulosa o'rnda aytish kerakki, uyali aloqa vositalari va kompyuterdan foydalanishda me'yor buzilishlari oqibatida kelib chiqadigan xastaliklarni asab-ruhiy buzilishlarning oldini olish uchun bir kecha-kunduzda undan foydalanishni 1-2 soatgacha cheklash (maktab yoshidagi bolalarda 1 soatgacha), har 30 daqiqa 10-20 daqiqa ekran oldidan uzoqlashish, davo badantarbiyasi bilan muntazam shug'ullanish, darmon-dori yetishmasligi va kamqonlikni davolash lozim.

Shu bilan birga mushtdekkina bolaga ham kompyuter va telefon sovg'a qilishning o'rniغا biror sport ashyosi (hech bo'lmaganda koptok) sovg'a qiling. Aks holda surriyodingizning bosh miyasida va ko'zlarida ortga qaytarib bo'lmas og'ir asoratlar kelib chiqishi turgan gap. Shved olimlari kompyuter oldida uzoq o'tirgan bolalarda "kompyuterga qaramlik" degan o'ziga xos kasallik rivojlanishi, o'z-o'zini o'ldirib qo'yish hollari ko'p uchrar ekan.

Alijon FAQIROV,  
Turon Fanlar akademiyasi va Yevropa tabiiy fanlar akademiyasi akademigi,  
Respublika Sog'liqni saqlash a'lchisi,  
G'iyosiddin ASALOV,  
Allergologiya, klinik immunologiya va hamshiralik ishi kafedrasi assistenti



Murabbiylar – mashaqqatli,  
ammo sharafli kasb egalaridir.



## TUZNING BIZ BILGAN VA BILMAGAN XUSUSIYATLARI...

**Tuz nomi bilan bizga ko'proq tanish bo'lgan natriy xlorid (bu yerda 40 foiz xlor va 60 foiz natriy) inson tanasining to'g'ri ishlashi uchun muhim muddadir. U tanadagi ko'plab biokimiyoviy jarayonlarda ishtirok etadi.**

Tuz tanamiz tomonidan ishlab chiqarilmaydi va tashqaridan keladi. Bizning tanamizda taxminan 150-300 gramm tuz mavjud bo'lub, uning ma'lum miqdori har kuni organizmdan chiqariladi. Tuz balansini saqlash uchun yo'qtotilgan tuz o'rnnini to'dirish kerak. Kunlik tuz iste'mol me'yori individual xususiyatlarga qarab 4-10 grammni tashkil qiladi. Masalan, terlashning kuchayishi bilan (sport paytida, issiqda), tuzni iste'mol qilish miqdori, shuningdek, ayrim kasalliklar (diareya, isitma va boshqalar) bilan ko'payishi kerak.

### Nima uchun tuz kerak?

1. Tuz me'da shirasining hosil bo'lishida ishtirok etadi.

2. Tuz tanadagi namlikni saqlaydi va qon bosimi juda past tushmasligiga yordam beradi.

3. Ovqatlarga tuz qo'shib, ta'm beriladi. Shuning uchun tuz ko'plab ziravorlar o'rnni bosadi.

4. Tuz konservant vazifasini bajaradi. Misol uchun, oshpazlik an'alalarida ko'p tuzlangan sabzavotlarni iste'mol qilish odat tusiga kirgan. Bu yangi meva va sabzavotlar bo'lmagan qishda hosilni saqlashga yordam beradi.

5. Tuz shirinlikni ta'kidlaydi va ta'mni muvozanatlash uchun kerak. Tuzli karamel shirinligida tuz karamel kabi muhim ahamiyatga ega: u kuygan shakarning shirinligini keltirib chiqaradi.

### Tuz qancha saqlanadi?

Tuz abadiy saqlanishi mumkin: u yerda 250 million yil yoldi va unga hech narsa bo'lmadi. Ammo qadoqlash yaroqlilik muddatini ko'rsatadi – odatda ikki yil. Gap shundaki, tuz atrof-muhitdan namlik va hidlarni o'zlashtiradi. Ishlab chiqaruvchilar buni yozadilar, chunki bu vaqt ichida ular tuzning ta'mini o'zgartirmasligini kafolatlaydi.

Umuman olganda, tuz ma'lum sharoitlarda saqlanishi kerak, ya'ni muhrlangan holda quruq xonada. To'q'ridan-to'g'ri quyosh nurlaridan ham himoyalangan bo'lishi kerak. Guruch tuzni ortiqcha namlikdan himoya qilishga yordam beradi: faqat tuz silkitigicha bir nechta don qo'shish tavsija etiladi. Guruch namlikni tuzga qaraganda tezroq o'zlashtiradi, shuning uchun tuz uzoqroq quruq qoladi.

### Tuzning foydaları

Tuz organizm tomonidan o'z-o'zidan ishlab chiqarilmagani va uning mayjudligi metabolik jarayonlarda muhim rol o'yaganligi sababli, uni har kuni oziq-ovqat bilan birga iste'mol qilish kerak.

Xlor oshqozonda xlorid kislotasini sintez qiladi, shuningdek, yog'larning parchalanish jarayoni uchun javob beradigan boshqa muddalarini hosil qiladi va natriy yo'g'on ichak tomonidan ozuqa muddalarining so'rilishiga ta'sir qiladi. Tuz hujayra darajasidagi metabolik jarayonlarda ham ishtirok etadi, qon plazmasi hajmini, suv-ishqoriy muvozanatni saqlash, asab impulslarini uzatish va hujayraning normal ishlashi uchun muhim element bo'lub xizmat qiladi.

### Ayollar uchun tuzning foydasi

Ayollar yod tanqisligini to'ldirish uchun yodlangan tuz iste'mol qilishdan foyda ko'radi. Yodlangan tuz, ayniqsa, yod tanqisligidan kelib chiqqan kasalliklarga chalingan bolalar tug'ilish xavfini kamaytirish uchun homilador ayollarning ratsionida zarurdir. Ushbu mineralning yetishmasligi kattalarda qalqonsimon bezning disfunksiyasiga va bolalarda aqliy rivojlanish muammolariga olib kelishi mumkin.

### Tuzning erkaklar uchun foydasi

Sog'lom va kuchiлик erkaklar uchun natriy xloridning yana bir foydali xususiyati shundaki, u ovqatlarning ta'n xususiyatlarini oshiradi, bu esa ularni iste'mol qilishdan ko'proq zavq olishga yordam beradi va ishtahani oshiradi.

### Bolalar uchun tuzning foydasi

Bolalar uchun osh tuzini iste'mol qilishning afzalligi uning ajoyib antibakterial xususiyatlari hisoblanadi. Bu mineral turli zararli bakteriyalarga qarshi faol himoyachi hisoblanadi.

### Tuzning zarari

Ko'p miqdorda tuzni iste'mol qilish inson salomatligiga salbiy ta'sir qiladi va hatto o'limga olib kelishi mumkin. Biroq, tuzning yetishmasligi uning ortiqcha bo'lishi kabi xavflidir.

Tuzga boy parhez ham organizmga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Stol tuzi natriyning asosiy manbai bo'lganligi sababli, ortiqcha iste'mol qilish quyidagi hodisalarga olib keladi:

- qon bosimi ortishi;
- yurak xuruji, insult kabi yurak-qon tomir kasalliklarini rivojlanish xavfining oshishi;
- shish sifatida namoyon bo'ladiyan tanadagi suyuqlikni ushlab turish;
- oshqozon saratoni xavfi;
- oshqozon shilliq qavatining shikastlanishi va yallig'anishi, bu uning kanserogenlarga nisbatan zaifligini oshiradi;
- oshqozon yarasini keltirib chiqaradigan patogen bakteriyalar Helicobacterii pylori sonining ko'payishi.

### Tibbiyotda tuzdan foydalananish

1. Tibbiyotda tuz ko'pincha dori-darmonlarni suyultirish uchun eritmalar

shaklida qo'llaniladi. Bu suyuqlik tanqisligini kamaytirish va zararsizlantirishga yordam beradi.

2. Shamollashni yoki sinusitni davolashda og'iz bo'shlig'i va paranasal sinuslar ham tuz eritmasi bilan yuviladi.

3. Tuzli eritma yangi kesilgan yoki yaraga qo'llanilsa, tuzning antiseptik xususiyatlari shikastlanish joyini dezinfeksiya qilishga yordam beradi.

4. Qabziyat paydo bo'lsa, osh tuzi eritmasi bilan ho'qnalar samarali usul sifatida qo'llaniladi, chunki u yo'g'on ichakning peristaltikasiga ijobji ta'sir ko'rsatadi.

5. Tuz kosmetologiyada ham keng qo'llaniladi. Natriy xlorid tirnoq, soch va terining holatiga foydali ta'sir ko'rsatadi. Tuz ko'plab skrablar, pilinglar va sellylitga qarshi mahsulotlarda asosiy modda bo'lub xizmat qiladi.

6. Tuzli eritma asosidagi vannalar va kompresslar isituvchi xususiyatlarga ega, yallig'anishni yengillashtiradi va qon aylanishini yaxshilaydi.

7. Natriy xlorid asosidagi muolajalar teri-yog' muvozanatini tartibga soladi, terini tozalaydi va unga ko'proq elastiklik beradi.

### Tuz haqida qiziqarli faktlar

1. 50-yillarda Shveysariyada 2 foiz fitoridlar va yodidlar osh tuziga qo'shila boshlandi. Bu aholi orasida karies tarqalishining oldini olishda yordam beradi. Usul ishladi, shuning uchun texnologiya tezda nemislar, fransuzlar va keyin butun dunyo tomonidan o'zlashtirildi.

2. Dengiz tuzi osh tuziga qaraganda foydalidir, chunki uning tarkibida ko'plab qo'shimcha mikroelementlar – rux, mis, kremlini, yod, temir, brom, marganes, kалиy, selen mavjud.

3. O'lik dengiz nafaqat shifobaxsh loyga ega sho'r ko'l, balki u yerdagi eng sho'r suv havzasi bo'lgan tabiy yodgorlik hamdir. Bu joydagи tuzlarning konsentratsiyasi 300 foizdan oshadi, ularning yarmidan ko'pi magniy xlorid, uchdan bir qismi natriy xlorid, qolgan qismi esa kalsiy va kaliydir.

4. Asalari chaqishidan keyin terining kuyishi va shishishini kamaytirish uchun chaqishni siqib chiqarib, keyin shikastlangan joyga nam tuz surting. Ushbu usul og'riqni yengillashtirishga yordam beradi.

5. Yog'ochni uzoqroq yoqishni istasangiz, unga tuz seping. Xuddi shu usul, agar yoqish uchun novdalar nam bo'lsa, ortiqcha namlik bilan yaxshi ishlaydi.

F.AZIZOVA,

tibbiyot fanlari doktori, professor

F.SALOMOVA,

tibbiyot fanlari doktori, professor,

Sh.QOBILJONOVA,

Atrof-muhit gigiyenasi kafedrasi tayanch doktoranti



*Inson dunyoni qanchalik bilsa,  
o'zligini ham shunchalik anglaydi.*



"Doktor reportyor" debat yoshlar klubi

## USTOZGA HAVASIM ORTIB, UNGA O'XSHAGIM KELDI...

Toshkent tibbiyot akademiyasi Matbuot xizmati huzuridagi "Doktor reportyor" debat yoshlar klubi har oyning birinchi haftasida mashhur akademik va professorlarimiz haftaligiga start berdi.

Haftalik doirasida talabalar ustozlar yaratgan tibbiyot ilmi maktabi faoliyatini keng targ'ib etadi. Faxriy professorlar haqida ko'proq bilish uchun o'zaro debatga kirishadi. Bu esa yoshlarda shifokorlik deantologiyasi shakllanib borishiga xizmat qildi.

Aprel oyining ilk haftasi Toshkent tibbiyot akademiyasida Daminov haftaligi deb e'lon qilindi. Turg'unpo'lat Daminov o'zining qariyb 60 yillik ilmiy-pedagogik faoliyati davomida Toshkent davlat tibbiyot instituti dotsenti, kafedra mudiri, rektori, Toshkent pediatriya ilmiy-tekshirish instituti direktori lavozimlarida samarali mehnat qildi.

Atoqli olim, mehribon ustoz, kamtarin inson Turg'unpo'lat Daminov Toshkent tibbiyot akademiyasida yoshlarga saboq berib, yuqori malakali kadrlar tayyorlashga munosib hissa qo'shdi.

Mazkur haftalik talabalik yillarda sahifasida unutilmas sahifani ochdi. Yurtimizning zabardast olimi, ustozimiz, fan arbobi, professor T.Daminov hayoti va ijodi to'g'risidagi maqola va videorolikni tayyorlash mening tibbiyot ilmiga bo'lgan qiziqishlarimni yanada oshirdi.

Shifokorlik kasbi borasidagi qarashlarimni boyitdi. Men tanlagan yo'nalish pediatriya sohasi bo'lganligi bois bolalar bilan ishlashga juda qiziqaman. Ayniqa ustoz T.Daminovning pediatriya sohasidagi barcha asarlarini sinchiklab o'rghanishga harakat qilaman. "Daminov haftaligi" mening qiziqishlarim va intiliishlarimga qanot bag'ishladi. Ustozni ko'rgan, bilgan u kishining iibrat maktabidan saboq olgan ustozlarimga havasim keldi. Kafedraga borib ular bilan suhabtlashmagim keldi. Bu tajriba hali menda shakllanmagani bois klubimiz rahbari, jurnalist Gulchehra Mirzayeva mahorat darsi o'tib berdi.

Natijada Yuqumli va bolalar yuqumli kasalliklari kafedrasi dotsenti, tibbiyot fanlari doktori Shaxnoza Raxmatullayevadan ustoz haqidagi deyarli barcha ma'lumotlarga ega bo'ldim. Akademik Daminov to'g'risida izlanishlarim natijalari maqola tarzida e'lon qilindi.

Turg'unpo'lat Daminov 1941-yil 26-aprelda Toshkent shahrida xizmatchi oиласида dunyoga kelgan. 1958-yilda o'tta maktabni oltin medal bilan tamomlab, o'sha yilning o'zida Toshkent Davlat Tibbiyot instituti talabasi bo'ldi. Turg'unpo'lat Daminov tibbiy ta'lim olish jarayonida har tomonloma faol bo'ldi. Mustahkam nazariy bilimlarni egallashtaga jon-jahdi bilan kirishdi.

Bemorlarni tekshirish ko'nikmalarini ustozlari ko'magida muntazam o'rganib bordi. O'qib-o'r ganjarlarini talabalar to'garaklariga qatnab, ilmiy va ijodiy ishlarda ko'rsatishga harakat qildi. Odamlar bilan muloqot qilish, do'stlashish va insoniy odob-axloqni o'rgandi. O'z oldiga qo'yan maqsadlariga qat'iyati bilan yetishishiga qattiq ishondi. O'ziga bo'lgan ishonchi va mas'uliyati uni kelajakda jamiyatga kerakli munosib inson bo'lib shakllanishiga sabab bo'ldi.

Ustoz ilmi foydalil ilmlardan bo'ldi. Buyuk yunon faylasufi Suqrot dunyodagi barcha kasblar odamlardan, faqat uchtasi hudodan, degan. Donishmand ta'rifiga ko'ra qozi, o'qituvchi va tabib o'zlarining qobiliyatlarini yuqoridan oladilar. Shifokorlik kasbi har doim eng hurmatli va sharafli kasblardan biri hisoblangan. Agar oddiy odam birovning hayotini saqlab qolsa, uni qahramon sifatida ulug'lashadi, mukofot berishadi, ular haqida gazetalarda yozishadi. Shifokor uchun odamlarni qutqarish kundalik mashaqqatl ishdir.

Mamlakatimiz malakali shifokorlarga boy. Ularning ko'pchiligining nomi tibbiyot tarixiga kirgan, o'z burchi, kasbi, Vatanga halol xizmat qilish namunasidir. Ulardan biri Turg'unpo'lat Daminov ekanliklariga butunlay ishonch hosil qildim. Turg'unpo'lat Daminov bolalarda uchraydigan gepatitning davomli va surunkali xillari shakllanishini klinik-patogenetik nuqtai nazardan o'rangan. Bolalarda uchraydigan B-virusli gepatitning davomli xilini samarali davolash usulini ishlab chiqqan va amaliyotga tatbiq etgan olim edi. Ko'pincha chaqaloqlar o'limiga sabab bo'ladigan nafas yo'llari kasalliklari belgilarini aniqladi.

T.Daminov - taniqli olim, shifokor. Olim va tashkilotchi sifatida tibbiyotning "Pediatriya", "Yuqumli kasalliklar" kabi muhim yo'nalishlarda ilmiy kashfiyotlar va asarlar bilan katta hissa qo'shgan va boyitgan hamda yirik mutaxassis sifatida katta ilmiy maktab yaratdi. Rossiya Tibbiyot fanlari akademiyasi akademigi V.F.Uchaykin va Latviya Fanlar akademiyasi akademigi A.F.Blyuger rahbarligida T.Daminovning "Bolalarda o'tkir va cho'zilgan virusli A va B gepatitning klinik-immunologik xususiyatlari" mavzusidagi doktorlik dissertatsiyasi Latviya gepatologik markazi va II-Moskva tibbiyot instituti negizida, bolalar yuqumli kasalliklari kafedrasida amalga oshirilgan va 1986-yilda Rossiya Tibbiyot Akademiyasi Pediatriya ilmiy tadqiqot institutida muvaffaqiyatlilimoya qildi. Ustozning yuqori malakali mutaxassis va tadqiqotchi sifatida shakllanishida professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan fan arboblari X.Yunusov,



O.Mahmudov kabi olimlarning hayotiy tajribasi va kasb mahorati katta rol oynadi. Daminov davriy nashrlarda chop etilgan 500 dan ortiq nashrlar, 6 ta darslik, 14 ta monografiya, 45 dan ortiq uslubiy ko'rsatmalar va qol'lanmalar muallifi edi.

Turg'unpo'lat Obidovichning pedagoglik faoliyati juda samarali bo'lgan. Uning rahbarligida bolalar yuqumli kasalliklarini o'qitish bo'yicha o'quv dasturlari va uslubiy ishlanmalar yaratilib, umumiy amaliyot shifokorlari bakalaviyat tayyorlash tizimi uchun - "Yuqumli kasalliklar", "Umumiy amaliyot shifokori faoliyatidagi yuqumli kasalliklar", "OIV infeksiyasi" o'quv qol'lanmalar (elektron versiyalari bilan) tayyorlangan, "Yuqumli kasalliklar" fanini yangi pedagogik texnologiyalar, interfaol o'qitish usullaridan foydalangan holda o'qitish bo'yicha qator uslubiy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Men "Doktor reportyor" debat klubi a'zosi Hokimov Bosimjon T.Daminovning hayot yo'llarini va ilmiy faoliyatini o'rganish jarayonida shifokorlik mashaqqatlari kasb ekanligi, bu kasbga o'ta jiddiy qarash kerak ekanligiga yana bir bor iqror bo'ldim.

Ustozlar ilmini o'rganish va targ'ib etish borasidagi tashabbuslari qo'llab-quvvatlab, akademik Turg'unpo'lat Daminov va boshaq o'nlab mashhur ustozlarimiz nomi bilan bog'liq haftaliklarda faol ishtiroy etmoqchiman. Zero, men ilm yo'lidaman. O'rganishlarim va reportyorlik qiziqishlarim orqali fan arbobi va professor T.Daminov hayoti va ijodini o'rgandim. Ustozga havasim ortdi. Unga o'xshagim keldi...

Atoqli olim, mehribon ustoz, kamtarin inson Turg'unpo'lat Obidovich Daminov kabi yetuk inson va imli shifokor bo'lishni niyat qildim. Ustozning xotirasi qalblarimizda hamisha saqlanib qoladi.

**Bosimjon HOKIMOV,  
Pediatriya, stomatologiya, xalq tabobati  
va tibbiy pedagogika fakulteti 2-bosqich  
talabasi, "Doktor reportyor"  
debat yoshlar klubi a'zosi**



*Ustoz – misli yonib turgan sham.*



## TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASI QUYIDAGI LAVOZIMLARGA TANLOV E'LON QILADI (2024-yil aprel)

Nº	Kafedra nomi	Lavozim, shtat birligi
<b>1-son davolash fakulteti</b>		
1.	Urologiya	assistant – 1,0
<b>2-son davolash fakulteti</b>		
2.	2-son ichki kasalliklari va endokrinologiya	assistant – 1,0
3.	Tibbiy radiologiya	katta o'qituvchi – 1,0
<b>Malaka oshirish fakulteti</b>		
4.	Akusherlik va ginekologiya	assistant – 1,0
<b>Pediatriya, stomatologiya, xalq tabobati va tibbiy pedagogika fakulteti</b>		
5.	2-son ichki kasalliklar propedevtikasi	assistant – 1,0
6.	Reabilitologiya, xalq tabobati va jismoniy tarbiya	assistant – 1,0
7.	2-son fakultet va gospital xirurgiya, transplantologiya	katta o'qituvchi – 1,0
<b>Tibbiy profilaktika va jamoat salomatligi fakulteti</b>		
8.	Gistologiya va tibbiy biologiya	assistant – 1,0
<b>Farmatsiya, menejment, tibbiy biologiya, biotibbiyot muhandisligi va oliy ma'lumotli hamshira fakulteti</b>		
9.	Gematologiya, transfuziologiya va laboratoriya ishi	katta o'qituvchi-1,0
<b>Xalqaro fakultet</b>		
10.	Tibbiy va biologik kimyo	katta o'qituvchi – 1,0
11.	Tibbiy va biologik kimyo	assistant – 1,0

Hujjatlar tanlov e'lon qilingan kundan boshlab bir oy davomida Toshkent tibbiyot akademiyasining devonxona va arxiv bo'limaldi qabul qilinadi.

Manzil: Olmazor tumani, Farobiy ko'chasi, 2-uy.

### SPORT - SALOMATLIK GAROVI

TTA Yoshlar ittifoqi boshlang'ich tashkiloti koordinatorlari jamoasi tomonidan Toshkent tibbiyot akademiyasi hamda Toshkent davlat stomatologiya instituti bilan hamkorlikda sportning voleybol turi bo'yicha musobaqa o'tkazildi.

Qizg'in kechgan bahslarda 2:0 hisobida Toshkent tibbiyot akademiyasi jamoasi Toshkent davlat stomatologiya instituti ustidan g'alaba qozonishdi. Jamoalar diplom va esdalik sovg'alar bilan taqdirlandi.

MUASSIS:  
**TOSHKENT  
TIBBIYOT  
AKADEMIYASI**

MUHARRIR  
**TURDIQUL  
BOBOMURATOV**

TAHRIR HAY'ATI:  
Q.Nizomov (Bosh muharrir o'rinnbosari),  
O.Hazratov, A.Zohidiy, N.Hakimova,  
L.Abduqodirova, M.Hasanova

Gazeta Pentium-IV  
kompyuterida sahifalandi va Toshkent  
Tibbiyot akademiya RIZOGRAFIda  
400 nusxada chop etildi.  
Manzilimiz:  
Toshkent shahri, Farobiy  
ko'chasi, 2-uy  
**Nashr uchun mas'ul**  
Q.Nizomov

Gazeta Toshkent Matbuot va axborot  
boshqarmasida 2007-yil 15-yanvarda  
02-0049 raqam bilan ro'yxatga olingan

Mualliflar fikri tahririyat nuqati nazaridan farqlanishi  
mumkin. Maqolalardagi ma'lumotlar uchun  
mualliflar javobgardir

Bepul tarqatiladi